



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XITOIY TAJRIBASINING YO'NALISHLARI

Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi

University of Business and Science o'qituvchisi.

mamajonovag89@gmail.com. Tel: +998906403073

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining davlatlar iqtisodiyotidagi o'rni, xususan davlamiz iqtisodiyotida bu yo'nalishning ahamiyati olib borilayotga islohotlar haqida so'z yuritildi. Shuningdek bu yo'nalish rivojlanishida xorij tajribasining o'rni, Xitoy davlatining tajribasi o'rganilib, tajriba asosida xulosalar olindi

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, Xitoy tajribasi, aholi bandligi, eksport, import, yalpi ichki mahsulot

Аннотация:

В данной статье рассматривается роль малого бизнеса и предпринимательской деятельности в экономике государств, в частности значение данного направления в экономике нашей страны, а также проводимые реформы. Кроме того, изучена роль зарубежного опыта в развитии данного направления, в частности опыт Китая, и на основе данного опыта сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, китайский опыт, занятость населения, экспорт, импорт, валовой внутренний продукт.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Abstract

This article discusses the role of small business and entrepreneurial activity in the economies of different countries, particularly the importance of this sector in our national economy and the reforms being implemented in this area. In addition, the role of foreign experience in the development of this sector, especially the experience of China, was studied, and conclusions were drawn based on this experience.

Keywords: small business, entrepreneurship, Chinese experience, employment, export, import, gross domestic product.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatidir. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilib, bozor talablariga tez moslasha oladi va bu xususiyat iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida muhim ustunlik hisoblanadi. Deyarli barcha davlatlar kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab – quvvatlashga keng miqyosda e'tibor qaratmoqda, chunki bu faoliyat zamirida ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, aholining daromadi oshib bormoqda, sifatli mahsulot va xizmatlar bilan bozorni ta'minlanmoqda, sog'lom raqobat muhiti shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati ilk mustaqillik yillaridanoq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy siyosatda



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritish imkonini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Tadbirkorlarning amaliy muammolarini, murojaatlarini hal etish maqsadida Prezidentning tadbirkorlar bilan “ochiq muloqot” mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. 2025-yilda qabul qilingan “Iqtisodiyotda kichik va o‘rta biznesning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–50-son Farmon esa tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu hujjatda kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, eksport hajmini kengaytirish hamda yangi ish o‘rinlari yaratish asosiy maqsad sifatida belgilandi¹.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasidagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga oid farmonlarida kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, eksport salohiyatini oshirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida respublikamizda ushbu yo‘nalishda quyidagi natijalarga erishdik.

¹ “Iqtisodiyotda kichik va o‘rta biznesning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–50-son farmoni



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik

1,208
milliondan
ortiq kichik
biznes
subyektlari
faoliyat
yuritgan

mamlakat
eksportining
49,6 foizini
kichik biznes
faoliyati
tashkil qildi

YAIMdagi
ulushi 51,5
foizni tashkil
etmoqda

kichik biznes
va
tadbirkorlik
jami
bandlikning
74.5 foizini
tashkil
etmoqda

umumiy
importning
54,2 foizi
kichik biznes
hissasiga
to'g'ri
kelmoqda.

1-rasm. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati ko'rsatkichlari².

Bu yo'nalishda yanada yuqoriroq natijalarga erishish uchun xorijiy tajriba va undan foydalanish muhim iqtisodiy va institutsional ahamiyatga ega. Shunday tajriba sifatida Xitoy davlatining kichik biznesni rivojlantirish masalalarini o'rganishimiz muhim ahamiyatga ega. Xitoy davlatida kichik biznesni rivojlantirish 1980 - yildan boshlab kuchaytirilgan siyosat orqali olib borilib, 2024-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti 134,9 trillion yuan (taxminan 18,8 trillion dollar)ni tashkil etdi va iqtisodiy o'sish 5 foiz bo'ldi. Bu iqtisodiy o'sishning asosiy qismi kichik va o'rta biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda³. Kichik

² Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

³ National Bureau of Statistics of China



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

biznes yo'nalishida erishilgan qo'shimcha ko'rsatkichlarni quyidagi rasm asosida ko'rishimiz mumkin.

Xitoyda kichik biznes ko'rsatkichlari.

kichik va o'rta
biznes
korxonalarini
mamlakat
korxonalarining
qariyb 90 foizini
tashkil qiladi

eksport hajmining
qariyb 68 foizi
kichik va o'rta
biznes hissasiga
to'g'ri keladi

kichik biznes
Xitoy YAIMining
qariyb 60 foizini
shakllantiradi

yangi ish
o'rinlarining 80
foizdan ortig'i
aynan kichik
biznes hisobiga
yaratiladi;

2-rasm Xitoy davlatining kichik biznes faoliyati ko'rsatkichlari⁴.

Keltirilgan yuqori va jozibali ko'rsatkichlar asosida, tajriba olish maqsadida Xitoy davlati bu yo'nalishda qanday tartibda siyosat, amaliy masalalarni olib borganligiga ahamiyat qaramiz. Xitoy davlatining kichik biznesni rivojlantirishdagi yo'nalishlarini quyida ko'rib chiqamiz:

- Davlat tomonidan kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratildi, soliqlar kamaytirildi, ro'yxatdan o'tkazish jarayoni soddalashtirildi, eksport qiluvchi korxonalariga davlat subsidiyalari ajratildi, buning natijasida minglab korxonalar tashkil etilmoqda;

⁴ National Bureau of Statistics of China ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

- Shenzhen, Shanxay va Guanchjou hududlardagi maxsus iqtisodiy zonalar shu qadar qulay biznes muhitiga egaki, investitsiyalar oqimi to'xtamaydi. Iahlab chiqarish va eksport ko'lamini doimiy kengayib bormoqda;

- IT, elektron savdo va startaplarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan "Alibaba", "Tencent" kabi kompaniyalar minglab kichik biznes subyektlari uchun qulay platforma yaratilgan bo'lib, natijada internet orqali kichik biznes bilan shug'ullanuvchilar soni keskin oshib bormoqda;

- qishloq hududlarida qishloq sanoatini rivojlantirishga, oilaviy biznes, hunarmandchilik va kichik ishlab chiqarishni rivojlantirishga umumxalq harakati miqyosida katta ahamiyat berildi, natijada qishloq aholisi bandligi oshib, kambag'allik darajasi sezilarli kamayib bormoqda.

Xitoy davlatida erishilayotgan yutuqlar, olib borilayotgan islohotlardan davlatimiz kichik biznes yo'nalishidagi mavjud muammolarga yechim, yo'nalish faoliyatini kengaytirish tajribalarini olishimiz mumkin. Fikrimizcha bu tajribalar asosida quyidagilarni amalga oshirishimiz, jumladan

✚ biznes faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishida imtiyozli kreditlar sonini ko'paytirish, garovsiz mikrokreditlash tizimini kengaytirish, ayollar va yoshlar biznesi uchun maxsus startap fondlarni tashkil etish;

✚ Biznesni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashda biznesni raqamlashtirish, texnoparklar sonini oshirish, IT va sun'iy intellekt bo'yicha treninglarni kengaytirish;

✚ Qishloq hududlarida infratuzilmani yaxshilash orqali investitsiyalarni jalb qilish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini kengaytirish biznes sub'ektlarining moliyaviy barqarorligiga, sifatli va raqobatbardosh tovar va xizmatlar tayyorlashlariga, kichik biznes subyektlarining sonining ko'payishiga, eksport salohiyatining o'sib



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

borishiga, aholi bandlik va farovonlik darajasini oshib borishiga katta hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmon. 2025-y
2. Симбирева, И. Д., Шматова, В. М. Экологическое предпринимательство как тенденция развития современных компаний // Актуальные исследования. Международный научный журнал. – № 46 (228). – 2024.
3. "O'zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik kodeksi". 2024-yil 15-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-andentrepreneurship-2>
5. National Bureau of Statistics of China